



TYUTORLAR FAOLIYATI IJTIMOIIY PEDAGOGIK TIZIM SIFATIDA

Kulniyazov T. U.

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Qoraqalpoq davlat universiteti*

Tayanch sózlar: tyutorlik faoliyat, tyutor-maslahatchi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, moral tyutor, darslar rahbari,

Ключевые слова: тьюторская деятельность, тьютор-консультант, социально-педагогический деятельность, моральный тьютор, руководитель занятий.

Key words: tutoring activity, socio-pedagogical activity, tutor-counselor, moral-tutor, director of studies.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari tyutorlik tizimi, uning mazmun va tuzilishi, tyutorlik tizim xususiyatlari hamda amaliyoti o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье исследуется тьюторская система зарубежных и республиканских высших учебных заведений, ее содержание и структура, особенности тьюторской системы, а также ее практика.

SUMMARY:

This article reveals the tutoring system of foreign and republican higher educational institutions, its content and structure, the features of the tutor system, as well as its practice.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-madaniy va ta'lim sohasidagi istiqbolli o'zgarishlar kasbiy ta'lim sharoitlarida yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning keskin muammolarini hal qilishning samarali yo'llarini qidirish zarurligini dolzarb masalaga atlantirib qo'ydi. Bilimli, ijodiy faol, tashbbuskor, yaratuvchanlik qobiliyatga va ushbu faoliyat samaradorligi uchun ma'suliyatni o'z zaimmasiga olgan shaxslar jamiyat uchun zarur. Ta'lim modelining ustuvor yo'nalishlari talabalarning butun hayoti davomida xususiy ta'lim yo'nalishini ijtimoiy va kasbiy faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlagan holda aniqlash hamda amalga oshirishni shakllantirish bilan bog'liq. Binobarin, o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga intiluvchi talabalarning shaxsi ta'lim-



tarbiya jarayonida birinchi o‘ringa chiqib oladi va ularning kasbiy pozitsiyasini shakllantirish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida raqobatbardosh mutaxassislarni kasbiy yetishtirish bilan bog‘liq masalalarni mavjud zamonaviy ta‘lim sharoitlarida oliy ta‘lim muassasalari o‘z kompetensiyalarini nomoyon qilishi orqali talaba-yoshlarni iltimoiy-pedagogik, psixologik qo‘llab-quvvatlashning amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Bizning fikrimizcha, bunday qo‘llab-quvvatlash oliy ta‘lim muassasalari tarbiya tizimida tyutor faoliyatining yetakchi bo‘lishini ta‘minlashda eng maqbul usul hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta‘lim tizimida yuz berayotgan muntazam o‘zgarishlar uning mazmunini o‘zgartirishni, faoliyatning maqsad va vazifalari, tashkil etish vositalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Tyutorlar faoliyati oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim-tarbiya ishlarida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Jahonning rivojlangan davlatlari oliy ta‘lim muassasalarida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatdagi xorijiy tajribalarni o‘rganish ta‘lim-tarbiya jarayonida tyutorlarning innovatsion modeli va tuzilmalarini ishlab chiqishdagi faoliyatini amalga oshirishning yo‘nalishlarim shakllari va usullarini tahlil qilish imkonini beradi va uni oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim muhitini modellashtirishda qo‘llash muayyan darajada obyektiv baholashni ta‘minlaydi. Har qanday oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim-tarbiya ishlarining amaldagi tajribasi so‘zsiz bebaho. Ammo, u jamiyat rivojlanishi dinamikasi doirasida modernizatsiyalash va yangicha yondashuvlarni talab qiladi [3, 37-40 b].

Biz taqdim qilgan materiallarda xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining keng tarqalgan va samarali ta‘lim-tarbiya amaliyotini ko‘rib chiqamiz.

Yevropa oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim-tarbiya faoliyatining institutsionallashgan shakli sifatida tyutorlik tizimi alohida jozibadorlik kasb etadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, tyutorlik tizimi o‘rta asrlardayoq yuzaga kelgan va ko‘pchilik davlatlar oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishida yetakchi usullardan biridir. Mazkur tizim Buyuk Britaniyada paydo bo‘lib, taxminan XIV asrda klassik ingliz universitetlari hisoblangan – Oksford va keyinchalik Kembrijda ommalashgan.

“Tyutorlik” tushunchasining aniq ta‘rifi mavjud emas, chunki har bir oliy ta‘lim muassasasi ushbu amaliy faoliyatni o‘z xohishiga ko‘ra tashkil qiladi. Muhim jihati shundaki, tyutor oliy ta‘lim muassasasida amaliyotchi mutaxassis bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda tyutorlik amaliyoti o‘qituvchi–tyutor bilan kichik talabalar guruhini (ikkitadan beshtagacha) o‘rganishdan iborat bo‘ladi.

Tyutorlik – bu faqat kasbiy bilimlarni yetkazib berishga asoslangan dasturiy ta‘lim-tarbiya berish shakli, balki bizning fikrimizcha, talaba shaxsiga, o‘z-

o‘zini anglashga va o‘zini namoyon qilishga yordam berishga yo‘naltirilgan talabalarning zamonaviy tarbiya amaliyotlaridan biri hisobalanadi.

Tyutorlik tizimining tuzilishi Buyuk Britaniyada [7] Kembridj va Oksford universitetlarining namunasiga tayanadi. Masalan, Kembridj universitetida quyidagicha yo‘nalishlarga ega [8]:

- darslar rahbari (Director of studies) talabalarning o‘quv jarayonini ta‘minlaydi;

- axloqiy tyutor (Moral tutor) talabalarning universitet hayotidagi ishtirokini ta‘minlash uchun mas‘uldir;

- tyutor yoki maslahatchi (Tutor or Supervisor) talabalarning o‘quv yili davomida ta‘lim olishi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Oksford universitetida yuqoridagi uchta vazifani bitta inson bajaradi. Talabalarning tyutor bilan hamkorlikdagi darslarida ajratilgan o‘quv vaqti Oksfordda 90%, Kembridjda esa 75% ni tashkil qiladi. Yangi universitetlarda bo‘lsa, haftasiga 1-2 soat ajratiladi. Tyutor va talabalar faoliyatining asosi, uning ishtirokchilarining teng pozitsiyasi va o‘zaro munosabatlari bo‘lib, u quyidagi faoliyat yo‘nalishlariga tayanadi:

- o‘rganuvchilarning zaruratlarini aniqlash;

- ta‘lim jarayonini tashkil etish;

- har xil yo‘nalishlarning maqsadlarini belgilash;

- harakatlarni rejalashtirish;

- o‘qish uchun manbalarni aniqlash;

- o‘zaro harakatdagi ta‘lim jarayoni va guruhning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikda ishlash;

- o‘quv rejasini tuzish;

- o‘qituvchilarga instruktorga deb emas, balki do‘st va yordamchi munosabatda bo‘lish;

- mustaqil ishlarni ta‘lim jarayonida qo‘llash;

- amalga oshirilgan ishlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- o‘z-o‘zini nazorat qilishni qo‘llash;

- bilim va ko‘nikmalarning jamlanmasini o‘quv yurtidan tashqarida egallash yo‘li bilan kengaytirish;

- kelajak hayotga ta‘sir etuvchi qarorlarni qabul qilish.

Talabalar o‘zora munosabatlarda tyutor tizimining o‘ziga xos xususiyati ular uchun zarur vazifalarni tanlash va ularni hal qilish dasturlarini ishlab chiqishda mustaqil bo‘lishidir. Bunda har bir talabaning tayyorgarlik va bilim darajasi hisobga olinib, uning qanday aniq natijalarga va qay darajada erishishi, ishning qanday shakli talaba uchun qulay, asosan mustaqil yoki to‘la avtonomli bo‘lishi aniqlanadi. Ko‘pchilik tyutorlar talabani o‘qitish maqsadi, vazifalarni o‘zi



samarali aniqlashi va ularga erishish yo‘llarini topishi mumkin, deb hisoblaydi. Bunda tyutor faqat talabalarga yo‘nalish berish rolini amalga oshiradi. Masalan, tegishli adabiyotni o‘qishni va muayyan tadbirlarda ishtirok etishni tavsiya qiladi.

Biz E.Belitskaya, Yu.Derajne, T.Kovaleva, T.Litvinova, S.Shennikov va boshqalar kabi ko‘plab rus olimlarining ilmiy ishlarini tahlil qilib, tyutorlar faoliyatining mazmun-mohiyatini tushunishning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Natijada, tyutorlar faoliyatining pedagogik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi tarixiy, pedagogik va tashkiliy farqlar aniqlandi. Masalan, Yu.L.Derajne ta’kidlab o‘tganidek, “Tyutor masofaviy ta’limning eng muhim tizimlashtiruvchi komponenti bo‘lib, u o‘qituvchi, maslahatchi, metodist va tyutorlik faoliyatni amalga oshiradi” [1; 58-b.].

S.Shennikov nuqtai nazaridan “Tyutor” atamasi mustaqil ta’lim va ta’limni tashkil qilish jihatda “o‘qituvchi-maslahatchi-mutaxassis” sifatida qaraladi [6; 360-b.].

Tadqiqotchilar T.Kovaleva [2; 246-b.], M.Popovlar [5; 59-b.] tyutor hamrohligini talaba va tarbiyachi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga asoslangan pedagogik texnologiya sifatida talqin qiladi. Bunda talaba o‘z maqsad va vazifalarini to‘g‘ri tushunib etadi va uni amalga oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda, “tyutor” tushunchasini “murabbiy” deb talqin qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida “tyutor” tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan, birlashtirilgan guruh talabalariga ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, ularni mehr-muruvvat, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etishda ularni besh muhim tashabbus doirasidagi to‘garaklarga jalb qiladigan va ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammolarga belgilangan tartibda yechim topadigan xodim hisoblanadi [4; 382-b.].

Shunday qilib, xorij oliy ta’lim muassasalari tarbiya faoliyatining afzalligi – talabalarni ijtimoiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlaydigan tyutorlik amaliyoti bu talabalarni jamoa va guruh a’zosi sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan har xil xizmatlar, turli darajadagi strukturalar, jamoalar, seminar-treninglar va mahorat darslarini tashkillashtirishdan iborat.

Tyutorlik faoliyatni tashkil qilishning taqdim etilgan xorijiy tajribalarda, so‘zsiz, talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi va subyektiv pozitsiyasi, oliy ta’lim muassasalari muhitida samarali moslashuvi bilan bog‘liq ko‘pgina ijobiy jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Tarbiya sohasida xorij va mamlakatimiz tajribalarining integratsiyalashuvi bizga o‘zaro o‘tish va o‘zaro harakat jarayoni sifatida namoyon bo‘lib, natijada

milliy qadriyatlarimizga asoslangan pedagogik tajribamiz saqlanib qoladi va yangilanadi hamda tarbiya jaroyining barqaror rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Xorijiy tajribalarda shaxsga yo'naltirilgan modellar sifatida tarbiyada birdamlikning konservativ jamoaviy modellari va talabalarning individual o'ziga xosligiga yo'naltirilgan tarbiya modellarini aniqlash, bizga oliy ta'lim muassasalarida tarbiya muhitini modellashtirish, talabaning kasbiy mustaqil o'z- o'zini tarbiyalash, bo'lajak mutaxassislarining individual xususiyatlarini shakllantirish bo'yicha mulohaza yuritish imkonini beradi.

Ammo, biz mahalliy oliy ta'lim muassasalarimizning tarbiya faoliyatini xorijiy tajribalardan o'zlashtirib olingan g'oyalarga asoslanmaslikga e'tibor qaratamiz. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari tyutorlik amaliyoti tajribasini qo'llashda xalqimiz milliyligini, amaldagi qonunchilik normalarini, mintaqani zamonaviy ijtimoiy muhitini, oliy ta'lim muassasalari va ularning manbalarini hisobga olish muhim.

Shunday qilib, tyutorlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini oliy ta'lim muassasalarida tashkil qilishni va mazkur faoliyatning maqsadlilikini ko'rib chiqib, hozirgi sharoitlarda ta'limni ikki darajali tizimga va o'qitishda kompetentlik yondashishga o'tishda, oliy ta'lim muassasalarida shakllangan tyutorlik faoliyat tizimi muhim aspekt bo'lib qolmoqda. Mazkur tizim talabalar orasida muhim ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatda ishtirokini qamrab olish, faqat faol talabalardan tashkil topgan guruhlarini tanlab olish va ular uchun alohida sharoitlar yaratish imkoniyatini beradi. Talabalar bilan kundalik shaxsiy ishlari ularning ongliligiga emas, balki quyidagi muammolarni hal qilishga qodirligi talab etiladi. Ular zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishda, o'zaro munosabatlarni baholashda, ijtimoiy rolini bajarishda, real hayotda o'zini anglashning individual muammolarini hal etishda hamda turmush tarzi qiyinchiliklarini yengib chiqish usullarini tanlashda yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Деражне Ю.Л. Тьютор в открытом обучении. // Учебно-методическое пособие. – М.: 1998. – 58 с.
2. Ковалева Т.М., и др., Профессия «тьютор». – М.: Тверь. «СФК офис». 2012. – 246 с
3. Кулнийазов Т.У. Образовательно-воспитательные практики тьюторства зарубежных вузов. // Ilim ham jamiyet. Ilimiy-metodikaliq jurnal. – Nókis. 2022. №2. – В. 37-40.
4. Kulniyazov T.U. Kalmenov R.M. Tyutorliq iskerliginde socialliq tarmaqlardnıń áhmiyeti // “Arnawlı pedagogika: mashqalalar ham sheshimler” Xalqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya. – Nókis. 2023. – В. 381-383.
5. Попов М.Н. Тьюторское сопровождение студентов в вузе. // Гуманитарные науки. 2013. №1. – С. 59-65.
6. Шенников С.А Открытое дистанционное образование. – М.: Наука. 2002. – 527 с.
7. <https://careers.yorku.ca/> сайт Йоркского университета.
8. <https://www.lse.ac.uk/economics/events-and-seminars> сайт Лондонской школы экономики.